TALABA-YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Kurbanov Elyor Ermamatovich, Guliston davlat universiteti o'qituvchisi,
e-mail: *elyorkurbanov88.a@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqola mazmuni OAVda talaba yoshlarlar ma'naviyatini rivojlantirishga karatilgan mavzular samaradorligini oshirish, talaba yoshlarlarning ma'naviy ehtiyojlariga mosligi, mavzular rang barangligi, tarbiyaviy ishlar mazmuniga uyg'unlik, talaba yoshlarlarning mediasavodxonligini rivojlantirish, kontentning talaba yoshlarlar yosh xususiyatlariga mosligi kabi mediapedagogik talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, axborot, ommaviy axborot vositalari, ma'naviyat, radio, mafkuraviy immunitet, internet, ijtimoiy tarmoq, virtual axborot maydoni.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЎ ПОВЎШЕНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЎХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ

Аннотация. Содержание данной стати основано на медиапедагогических требованиях, таких как повўшение еффективности тем, направленнўх на развитие духовности учаҳихся и молодежи в средствах массовой информации, соответствие духовнўм запросам учаҳихся и молодежи, разнообразие тем, гармония с содержание воспитателной работў, развитие медиаграмотности студентов и молодежи, соответствие содержания возрастнўм особенностям студентов и молодежи.

Ключевые слова: глобализация, информация, СМИ, духовност, радио, телевидение, идеологический иммунитет, Интернет, социалная сет, виртуалное информационное пространство.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF IMPROVING THE SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF YOUTH STUDENTS BASED ON THE MEDIA

Abstract. The content of this article is based on media pedagogical requirements, such as increasing the effectiveness of topics aimed at developing the spirituality of students and youth in the media, compliance with the spiritual needs of students and youth, a variety of topics, harmony with the content of educational

work, developing media literacy of students and youth, compliance of the content with the age characteristics of students and youth.

Key words: globalization, information, mass media, spirituality, radio, television, ideological immunity, Internet, social network, virtual information space.

Kirish. Jahon miqyosida axborot kommunikatsion texnologiyalarining rivoji talaba-yoshlarning hayot tarziga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Xorijiy televidenielar orqali berilayotgan ko‘rsatuvlar, radio eshittirishlar, internet manbalari, mobil aloqa, kompyuter o‘yinlari, video va kino mahsulotlaridan foydalanuvchi talaba-yoshlar kerakli axborot bilan birga jamiyatimizning axloqiy tartib qoidalariga zid bo‘lgan shafqatsizlik, zo‘ravonlik va milliy mentalitetimizga begona bo‘lgan boshqa g‘oyalar targ‘ibotiga ham duch kelmoqda. Natijada talaba-yoshlar orasida axborot madaniyatini shakllantirish va ularning ma’naviyatini yuksaltirish zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maqsadimiz, Ta’lim tizimining OAV lardan voz kechishi emas, ulardan oqilona foydalangan holda, o‘zligimiz, qadriyatlarimizni saqlab qolishdan iborat. Bu borada oila, mahalla, ta’lim muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlarining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib talaba-yoshlar ma’naviy axloqiy sifatlarini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirishga oid quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

OAV orqali yoshlarda ijtimoiy fikrni tahlil qilish tizimini kuchaytirish;

– yoshlarning «ijtimoiy dunyoqarashini» axborot maydonidagi dunyoqarashini o‘rganish, bu boradagi faoliyat samaradorligini oshirish;

– xorijiy davlatlarning bizning milliy mentalitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan salbiy tomonlari ham mavjudligini OAV orqali talaba yoshlarga mashg‘ulotlar davomida tushuntirib borish;

– internetdan foydalanishga oid axborot madaniyatini shakllantirish;

– milliy qadriyatlar va o‘zligimizni anglash, ma’naviyatimizga tahdid kelajagimizga tahdid ekanligini tushuntirish;

– o‘sib kelayotgan yosh avlodning media savodxonligi va axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini oshirish (ma’naviy ma’rifiy tadbirlar, OAV dasturlari orqali);

– axborot makonining globallashuvi jarayonida talaba yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uzluksiz tarzda olib borilishini yo‘lga qo‘yish;

OAV vositalarida yoshlar ma’naviy yetukligini ta’minlashga erishish;

Talaba yoshlar auditoriyasiga mos bo‘lgan OAV mahsulotlari safini kengaytirish, yoshlarga oid teleko‘rsatuvlar va radio eshittirishlarda vatanparvarlik tuyg’ularini ularga hayotiy misollar bilan yetkaza bilish, matbuot sahifalaridagi yoshlarga doir materiallar sifatiga e’tibor qaratish, sermazmun OAV mahsulotlarini tayyorlashda jurnalistlar va pedagoglar hamkorligini kuchaytirish;

talaba yoshlarga ma’naviy axloqiy tarbiya berishda media ta’limning, xususan, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.

Bu tadbirlarni amalga oshirishda ilmiylik, muvofiqlashtirish, tizimli boshqaruv

tamoyillariga rioya etish va talaba yoshlarlarning yosh xususiyatini hisobga olish juda muhimdir.

Ma’naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. Mamlakat va millat taqdirida ma’naviy tarbiyaning o‘rni muhim ahamiyatga ega. Ayni davr insondan OAV larning qaysi turi orqali axborotga ega bo‘lmasin, albatta, axborotni tahlil qila olish, yot g‘oyalarga nisbatan ma’rifat bilan qarshi tura olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni talab qilmoqda. Bu jarayon insondagi mafkuraviy immunitetning shakllanishi bilan bevosita bog‘liq. [1, 114-119-b.]

Jahonda talaba yoshlarni shaxs sifatida rivojlantirish va uning ijtimoiy faolligini oshirishda mediavositalardan foydalanish texnologiyalarini, innovatsion usullarini takomillashtirish, talaba-yoshlar ma’naviyatini ommaviy axborot vositalari (OAV) asosida shakllantirishning diagnostik tizimini takomillashtirish, global axborot maydonida talaba-yoshlarni turli g‘oyaviy ta’sirlardan himoyalash va axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. .[2, 42 b.]

Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim tarbiyasi, shaxs kamoloti yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yosh avlodni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy madaniy tarixiy an’analari, urf odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar amaliyotga joriy etildi.

Respublikamizda milliy g‘oya va mafkuraning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, milliy tarbiyaning ma’naviy asoslari, talaba yoshlar shaxsida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ma’naviy madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik masalalari mamlakatimiz olimlari M. Duronov.[2, 42 b.], N. Taylakova.[2, 34 b.] va boshqa olimlar. tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlar J .Caberoning tadqiqotlarida ommaviy axborot vositalarining inson hayotidagi ijtimoiy imkoniyatlari va mediata’lim texnologiyalarini joriy etish zarurati ochib berilgan. Talaba yoshlar ma′naviyatini rivojlantirish muammosi turli soha olimlari tomonidan o‘rganilgan bo‘lsada, global axborotlashtirish davrida talaba-yoshlar ma′naviyatini milliy ommaviy axborot vositalari manbalari: masalasi maxsus tadqiqot predmeti bo‘lmagan.

Tajribalarimiz tahlili shuni ko‘rsatadiki, talaba-yoshlar auditoriyasiga mo‘ljallangan mavzularning yoritilishida yuqorida sanab o‘tilgan tashkiliy-pedagogik funktsiyalar teleko‘rsatuvlar mazmunida har doim ham o‘z aksini topmaydi. Xususan, bolalar ko‘rsatuvlarini tayyorlaydigan telejurnalistlar faoliyatida voqea-hodisalarni pedagogik idrok va tahlil qilish qobiliyati sust, natijada ko‘rsatuv tayyorlash jarayonida talaba-yoshlarning ma’naviy ehtiyojlari, qiziqishlari, shaxsiy fikri e’tibordan chetda qoladi.

Tadqiqotda yuqoridagi holatlarni hisobga olib, talaba-yoshlar auditoriyasiga oid dasturlarni tayyorlovchi jurnalistlarning mediapedagogik bilimlarini oshirish zarur degan xulosaga kelindi. Shunga ko‘ra, tadqiqot doirasida OAVda talaba-yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishga qaratilgan mavzular samaradorligini oshirish talaba yoshlarlarning ma’naviy ehtiyojlariga mosligi, mavzular rang barangligi, tarbiyaviy ishlar mazmuniga uyg‘unlik, talaba yoshlarlarning mediasavodxonligini rivojlantirish, kontentning talaba yoshlarlar yosh xususiyatlariga mosligi kabi

mediapedagogik talablar asosida takomillashtirildi (1-jadval).

1-jadval

Talaba-yoshlar ko‘rsatuvlarining ma’naviy -ma’rifiy natijaviyligini oshirish talablari

	Natijaviylikni oshirish talablari va uning qisqacha mazmuni
1.	*Ma’naviy ehtiyojlarga mosligi.* Talaba-yoshlar mavzusidagi materiallarning mazmun-mohiyati, tuzilishi aniqlik va oddiylikka asoslanishi va talaba-yoshlarlarning ma’naviy ehtiyojlarini rivojlantirishga xizmat qilishi zarur.
2.	*Mavzular xilma-xilligi.* Teleko‘rsatuvlarda beriladigan materiallar mazmuni badiiy, informatsion, ta’limiy, tarbiyaviy, kreativ fikrlashga undovchi talablarga mos bo‘lishi lozim.
3.	*Uyg‘unligi* – teleko‘rsatuvlarda beriladigan materiallar mazmuni ma’naviy- mafkuraviy tarbiya jarayoniga uyg‘un bo‘lishi lozim.
4.	*Yosh xususiyatlariga mosligi.* Talaba-yoshlar mavzusini yoritadigan mediamateriallar talaba-yoshlarning istak-xohishlari va qiziqishlariga, psixologiyasiga, ijtimoiy tasavvur va qarashlariga mos bo‘lishi lozim.
5.	*Teleko‘rsatuvlar mazmuni rivojlantirish.* Teleko‘rsatuvlar mazmuni talaba-yoshlarda mediamateriallarni tahlil qila olish, xulosa chiqarish, virtual munozaralarga mustaqil erkin fikrini bildira olish qobiliyatini rivojlantirishi lozim.

Yuqoridagi mediapedagogik talablarni hisobga olib, talaba-yoshlar auditoriyasiga oid dasturlar, jurnalistlar va pedagoglar hamkorligini yo‘lga qo‘yish asosida tayyorlanishi lozim. Bizningcha, teleko‘rsatuvlarning tarbiyalovchi xususiyatlarining samaradorligi aynan mazkur xamkorlik asosida tayyorlanishiga bevosita bog‘liq. Ushbu tadbirni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining ta’lim muassasasi, oila va mahalla bilan hamkorlikdagi faoliyatini integratsiyalash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot doirasida talaba-yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishga qaratilgan teleko‘rsatuv va radioeshittirishlarning mazmunidan tarbiyaviy jarayonlarda foydalanish metodlari (suhbat, davra suhbati, videolektoriy, mediahaftaliklar) mediapedagogik resurslar asosida takomillashtirilgan. Maqolada teledasturlarni ta’lim muassasasi, mahalla va oila muhitining ma’naviy tarbiya jarayoniga joriy qilish metodlari yoritilgan.

Ta’lim muassasasida: dars jarayonlarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda o‘qituvchi ko‘rsatuvlardan dars mavzusiga mos epizodik lavhalar, kichik syujetlardan (videolektoriy) mashg‘ulotda foydalanishi va talaba-yoshlarlarni mushohadaga chorlashi, mediamateriallar vositasida ularda ijodiy va tankidiy fikrlash

ko‘nikmalarini shakllantirishi mumkin;

OTM OAVdan foydalanish holatini ya’ni internet, ijtimoiy tarmoqlarga qanday maqsadda kirishi, qanday film, serial, kliplarni ko‘rishini nazoratsiz qoldirmaslik choralarini o‘zaro suhbat asosida muhokama qilishga chorlash zarur;

OTMda «Yosh jurnalistlar» guruhini tashkil etish hamda milliy telekanallar ko‘rsatuvlaridan andoza olib, kichik videolavhalar tayyorlash, maqsadga yo‘naltirilgan intervyular tashkil etish, «Zakovat», «Bilimdon» kabi shoularni uyushtirish orqali natijaga erishish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot davomida talaba-yoshlarning hayotida radioning o‘rni va radioeshittirishlarning tarbiyaviy funktsiyalari aniqlashtirilgan.

Kuzatuvlarimiz jarayonida, ota-onalarga berilgan «Farzandingiz internetda nimalar bilan shug‘ullanishini bilasizmi» degan savolga 70,8% ota-onalar aniq javob bera olmaganliklari ma’lum bo‘ldi. Ota- onalarning ko‘pchiligi: «Internetni nazorat qilish qiyin, u anonim xususiyatga ega», - degan xulosani berganlar. Ota-onalar o‘z farzandlarining kanday saytlarga kirishlarini bilmasligi oqibatida, ayrim talaba-yoshlar «kiberludomaniya» qurboniga aylanib qolmoqda. «Kibernetik ludomaniya atamasi jahon meditsina amaliyotiga rasman kiritilgan kasallik nomi. Kiberludomaniya kompyuter o‘yinbozligi» talaba-yoshlar orasida kompyuter o‘yinbozligiga chalinganlarining hayot tarzida, jismoniy va ma’naviy rivojlanishida kiberludomaniyaning asoratlari kuzatiladi.

Tadqiqot davomida talaba yoshlarni internetning salbiy ta’siridan himoya qilish, talaba yoshlar orasida axborot xavfsizligini ta’minlashga doir quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Talaba yoshlar ma’naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish hozirgi kunda turli ko‘rinishlardagi g‘oyalar, mafkuralar o‘rtasida qat’iy kurash ketayotgan bir davrda muhim va dolzarb pedagogik zaruratdir. Tadqiqotda teleko‘rsatuvlarning talaba-yoshlar ma’naviyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi: ogohlantiruvchi, ma’lumot beruvchi, integrativ, refleksiv, ijtimoiy pedagogik, madaniy-rekreativ extiyojlarni ta’minlovchi tashkiliy pedagogik funktsiyalari aniqlashtirilgan. Ular bugungi talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

OAV muayyan axborotni yetkazish, u yoki bu masalaga diqqatni qaratish orqali talaba-yoshlarga, turli ijtimoiy guruh vakillariga o‘z fikrlarini ifoda etish, fikrdoshlarni topish, yagona maqsad va e’tiqod yo‘lida yakdillik bilan harakat qilishga imkon yaratadi. Ayniqsa, televidenie va internet eng so‘nggi ilmiy yangiliklarni qisqa vaqtda butun dunyoga ma’lum qilishga, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san’at yutuqlaridan har bir talaba-yoshlar foydalana olishiga zamin yaratadi.

OAV ning talaba-yoshlarga ta’sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko‘tarilayotgan masalalarning dolzarbligi hamda tahliliylik darajasiga va mavjud muammolarning samarali yechimlarini taklif etishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Shu bois, tadqiqotda OAV da talaba-yoshlarlar ma’naviyatini rivojlantirishga qaratilgan mavzular samaradorligini oshirish talaba-yoshlarlarning ma’naviy ehtiyojlariga mosligi, tarbiyaviy ishlar mazmuniga uyg‘unlik, talaba-yoshlarlarning mediasavodxonligini rivojlantirish, kontentning talaba-yoshlarlar yosh

xususiyatlariga mosligi kabi mediapedagogik talablar asosida takomillashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Duronov M.,Taylakova Sh. N. Ommaviy axborot vositalari asosida xorijiy tillarni o‘rgatish. G‘G‘. «Yoshlarga chet tillarni o‘rgatishning zamonaviy texnologiyalari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.
– Toshkent, 2013. – B . 40-42.

2. Taylakova Sh. N., Imomkulova G. N. Mediata’lim va zamonaviy pedagog G‘G‘. Murabbiy mahorati. Jurnal. – Toshkent, 2016. № 1. – B. 32-34.

3. Cebreiro .B Novoe texnologii kak obuchayuhie insrumento. 2006